

## «Asaka» Bankining 2017 yilga mo'ljallangan Biznes-rejasi

«Asaka» Bankining 2017 yilga mo'ljallangan Biznes-rejasi «Asaka» Bankining O'zbekiston bank bozorida 2017 yildagi tijorat faoliyati uchun asos hisoblanadi va 2017 yil uchun belgilangan strategik parametrlarni amalga oshirish, jumladan, ularga erishish uchun tadbirlarni ham o'z ichiga olgan moliyaviy loyihadir.

Reja bankning real istiqbollari va potensial imkoniyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan va yagona maqsadga erishishga yo'naltirilgan barcha tashkiliy tuzilmalarning sa'y-harakatlarini muvofiqlashtiruvchi 2017 yilga mo'ljallangan korporativ vazifalarning aniq-ravshan qo'yilishini o'z ichiga oladi.

Tanlangan yuksak burchiga sodiq qolib va o'zining raqobatli ustunliklaridan maksimal darajada foydalangan holda Bank 2017 yilda bank xizmatlari bozori va moliyaviy bozorining barcha jabhalarida o'z faoliyatini jadallashtirish niyatidadir. Ushbu dasturiy hujjat bilan belgilangan tijoriy faoliyatning maqsadli ko'rsatkichlariga erishish uchun Bank kredit operatsiyalarini, qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni va investitsiyalarni, moliyaviy aktivlar bilan operatsiyalarni o'tkazishni rejalashtirmoqda, shuningdek, ko'rsatilayotgan vositachilik va kuzatma xizmatlarning hajmi va ko'lamini kengaytirish niyatidadir.

Bank 2017 yilda xarajat qismining prognozi 857,1 mlrd so'm bo'lgani holda 957,1 mlrd so'm miqdorida jamlanma daromad olishni rejalashtirmoqda. Sof foyda 100,0 mlrd so'm darajasida prognoz qilinmoqda.

### 2017 yilga mo'ljallangan Bank daromadlari va xarajatlari tuzilmasi

	<b>mln so'm</b>	<b>nisbiy qiymat</b>
Daromadlar jami, shu jumladan:	957 100,0	100,0%
Foizlik daromadlar	697 100,0	72,8%
Foizsiz daromadlar	260 000,0	27,2%
Xarajatlar jami, shu jumladan:	857 100,0	100,0%
Foizlik xarajatlar	471 600,0	55,0%
Foizsiz xarajatlar	56 800,0	6,6%
Operatsion xarajatlar	250 700,0	29,3%
Ssuda va boshqa aktivlar bo'yicha ehtimoliy ziyonlar zaxirasi	48 000,0	5,6%
Foydadan soliq	30 000,0	3,5%
<b>Sof foyda:</b>	<b>100 000,0</b>	